

25-yanvar O'Imas Umarbekov tavallud topgan kun

<https://uzkimiyosanoat.uz/oz/manaviyat/ajdodlarga-ehtirom/olmas-umarbekov-tavallud-topgan-kun>

O'Imas Umarbekov 1934-yili Toshkentning Mirobod mahallasida tug'ildi. Toshkent davlat universiteti (hozirgi O'zMU)ning filologiya fakultetida tahsil oldi.

Respublika radiosi Adabiy-dramatik eshittirishlar Bosh tahririyatida bosh muharrir, "O'zbekfilm" kinostudiyasida direktor, O'zbekiston Madaniyat vaziri, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, shu bilan birga Osiyo va Afrika yozuvchilar birdamlik qo'mitasining raisi lavozimlarida xizmat qildi. 1989-1991-yillarda esa Respublika Vazirlar Mahkamasi raisining o'rinbosari bo'lib ishladi.

U o'nlab hikoyalar, qissalar, "Odam bo'lish qiyin", "Fotima va Zuhra" nomli romanlar, "Qiyomat qarz", "Shoshma quyosh", "Oqar suv", "Sud", "Komissiya", "Kuzning birinchi kuni", "Arizasiga ko'ra", "Kurort", "Yer yonganda" kabi dramatik asarlar yaratdi. Shuningdek, "Ikki soldat haqida qissa", "O'zgalarni deb", "Qalin qor bag'ridagi uchrashuv" kabi kinofilm ssenariylarini yozdi. "Odam bo'lish qiyin" romani O'zbekiston Yoshlar tashkilotining mukofotiga (1971), "Ikki soldat qissasi" filmi Respublika Davlat mukofotiga (1977) sazovor bo'ldi.

O'Imas Umarbekov 1984-yil "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi", 1992-yilda "O'zbekiston xalq yozuvchisi" faxriy unvonlari bilan taqdirlandi.

O'Imas Umarbekov og'ir xastalikdan so'ng, 1994-yil 10-noyabrda 60 yoshida hayotdan ko'z yumdi. Vafotidan keyin "Fotima va Zuhra" romani nashr etildi va Muqimiy teatrida sahnalashtirildi hamda roman asosida badiiy film yaratildi. Toshkent shahri ko'chalaridan biriga adib nomi berildi. Uch jildlik "Tanlangan asarlar"i nashr etildi.